

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.A.Mamajonov</b> O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati .....	545
<b>B.A.Pulatov</b> Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari .....	548
<b>K.I.Marayimova</b> Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari ...	552
<b>N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva</b> Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirish usullari .....	557
<b>D.I.Asqarova</b> Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari .....	561
<b>M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari .....	569
<b>M.Q.Jabborova</b> Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaviy sifatiga erishish omillari .....	572

---

FALSAFA

<b>A.A.A.Qambarov</b> "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari .....	579
<b>I.M.Arzimatova</b> Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'rni .....	583
<b>D.E.Normatova</b> Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati .....	588
<b>I.A.Asatulloev</b> Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari ma'naviy hayotining qiyosiy tahlili .....	593
<b>T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov</b> Korrupsiyaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limiy jihatlari .....	597
<b>S.S.Evatov</b> Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdaga o'rni .....	602
<b>I.Y.Toirov</b> Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarni o'rganish muammolari .....	606
<b>A.M.Rasulov</b> Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili .....	610
<b>A.A.Sayitxonov</b> Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'rni .....	614
<b>F.A.Yuldashev</b> Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests .....	618
<b>S.P.Tojiboyev</b> Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili .....	625
<b>B.X.Mirzaraximov, B.T.Shokirov</b> Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari .....	631
<b>M.A.Abduxamidov</b> Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlariga munosabatining tahlili .....	635

---

SIYOSAT

<b>J.A.Dadaboyeva</b> Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari .....	638
<b>A.A.G'aniyev</b> Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati .....	643

---

TARIX

<b>B.A.Usmonov</b> "Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir .....	648
--	-----



UO'K: 347.63:347.633

## FARZANDLIKKA OLISHNI BEKOR QILISH ASOSLARI

## ОСНОВАНИЕ ДЛЯ ИЗБЕЖАНИЯ УСЫНОВЛЕНИЯ

## BASIS OF AVOIDANCE OF ADOPTION

Dadaboyeva Jumagul Anvarovna 

Farg'ona davlat universiteti, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

## Annotatsiya

Mazkur tadqiqotning maqsadi farzandlikka olishni bekor qilishga oid huquqiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni tadqiq etish, bu boradagi muammolarni aniqlash va qonunchilikni takomillashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilash sohasidagi takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqolada farzandlikka olishni bekor qilish asoslari konseptuallik, muammoviy-maqsadli, qiyosiy huquqiy, amaldagi qonun hujjalari va ularni qo'llashni ilmiy tahlil etish ilmiy usullari yordamida tahlil etilgan.

Farzandlikka olishni bekor qilish deganda, farzandlikka olish natijasida yuzaga kelgan munosabatlarni sud tartibida bekor qilinishini anglatuvchi yuridik fakt tushuniladi. Farzandlikka olishni bekor qilinishi natijasida farzandlikka oluvchi (uning qarindoshlari) va farzandlikka olingan bola o'rtasidagi barcha huquqiy munosabatlar tugatiladi. Shu bilan birga, bola va uning o'z (biologik) ota-onasi (uning qarindoshlari) o'rtasidagi o'zaro huquq va majburiyatlar agarda bolaning manfaatlariga zid kelmasa qayta tiklanadi. Demak, farzandlikka olishni bekor qilinishi huquqni tugatuvchi va huquqni qayta tiklovchi yuridik fakt bo'lib hisoblanadi.

## Аннотация

Целью данного исследования является изучение правового регулирования правоотношений, связанных с отменой усыновления, выявление проблем в этой связи и разработка предложений по совершенствованию законодательства и совершенствованию правоприменительной практики.

В данной статье основания отмены усыновления анализируются с помощью концептуальных, проблемно-объективных, сравнительно-правовых, действующих правовых документов и научных методов научного анализа их применения.

Под отменой усыновления понимается юридический факт, означающий прекращение отношений, возникших в результате усыновления, в судебном порядке. В результате отмены усыновления прекращаются все правоотношения между усыновителем (его родственниками) и усыновленным ребенком. При этом взаимные права и обязанности между ребенком и его (биологическими) родителями (его родственниками) восстанавливаются, если они не противоречат интересам ребенка. Следовательно, отмена усыновления является юридическим фактом, прекращающим право и восстанавливающим право.

## Abstract

The purpose of this study is to study the legal regulation of legal relations related to the cancellation of adoption, to identify problems in this regard and to develop proposals for improving the legislation and improving the practice of law enforcement.

In this article, the foundations of adoption cancellation are analyzed with the help of conceptual, problem-objective, comparative legal, current legal documents and scientific methods of scientific analysis of their application.

Annulment of adoption is understood as a legal fact that means annulment of the relationship resulting from adoption in a court of law. As a result of cancellation of adoption, all legal relations between the adopter (his relatives) and the adopted child are terminated. At the same time, mutual rights and obligations between the child and his (biological) parents (his relatives) are restored if they do not conflict with the child's interests. Therefore, cancellation of adoption is a legal fact that terminates the right and restores the right.

**Kalit so'zlar:** Farzandlikka olish, huquqiy munosabat, farzandlikka oluvchi, farzandlikka olinuvchi, oilaviy munosabatlar, oilaviy tarbiya, oilaviy tarbiyalash shakli, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, farzandlikka olishni bekor qilish, huquqiy tartibga solish, sud tartibi.

**Ключевые слова:** Усыновление, правоотношения, усыновитель, усыновленный, семейные отношения, семейное воспитание, форма семейного воспитания, дети, лишённые родительской опеки, признание усыновления недействительным, правовое регулирование, судебный процесс.

**Key words:** Adoption, legal relationship, adopter, adoptee, family relations, family education, form of family education, children deprived of parental care, annulment of adoption, legal regulation, judicial procedure.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va oila qonunchiligiga muvofiq voyaga etmagan bolalar bir qator mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lib, ushbu huquqlar qonun asosida himoya qilinadi va kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 78-



## SIYOSAT

moddasida "Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi", deb belgilab qo'yilgan.

Davlat va jamiyat etim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi. Albatta, Asosiy qomusimizda ushbu normalarning mavjudligi boshqa qonun va qonun osti hujjatlarini hayotga tatbiq etishda dasturul amal bo'lib xizmat qiladi.

Voyaga etmagan bolalarni farzandlikka olish ota-onasi bo'lmagan yoki turli sabablarga ko'ra ular tarbiyasidan mahrum bo'lib qolgan bolalarga oilaviy tarbiyani ta'minlash, bolalar huquq va manfaatlarini qo'riqlash, ularni jismonan va ma'nan barkamol inson sifatida kamol topishiga imkon yaratadi [1,688]. Farzandlikka oluvchilar ota-onalik majburiyatini beg'araz bajaradilar hamda ularni ruhiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlaydilar. O'zaro insoniy muomala muhitida yashash har qanday shaxsning tabiiy ehtiyoji sanaladi va uni to'la-to'kis amalga oshirishda oila muhiti zarur bo'ladi. Shu nuqtai nazardan olganda farzandlikka olishda bolalarning huquqiy maqomi va bunda ular manfaatlarini, shu bilan birga farzandlikka oluvchilarning ham huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi farzandlikka olishni bekor qilishga oid huquqiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni tadqiq etish, bu boradagi muammolarni aniqlash va qonunchilikni takomillashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilash sohasidagi takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari farzandlikka olishni bekor bo'lish asoslari va uning tavsifini berishdan iborat.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

O'zbekiston Respublikasida sivilist olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, jumladan, F.M.Otaxo'jayev, M.Vosiqova, G.Inomjanova, A.Y.Azizova, Sh.R.Yuldasheva, N.A.Ashurova, Z.Esonovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda farzandlikka olish, shuningdek farzandlikka olishni bekor qilish bilan bog'liq ayrim jihatlar yoritilgan.

Mazkur maqolada farzandlikka olishni bekor qilish asoslari konseptuallik, muammoviy-maqsadli, qiyosiy huquqiy, amaldagi qonun hujjatlari va ularni qo'llashni ilmiy tahlil etish ilmiy usullari yordamida tahlil etilgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Oila qonunchiligiga muvofiq, farzandlikka olishni bekor qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

Oila kodeksining 169-moddasida farzandlikka olishni bekor qilish asoslari berilgan. Farzandlikka olishni bekor qilishning muhim asoslari quyidagilardan iborat:

-farzandlikka oluvchilar o'z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki ularni lozim darajada bajarmayotgan bo'lsalar;

-ota-onalik huquqini suiiste'mol qilayotgan bo'lsalar;

-farzandlikka olinuvchilarga nisbatan shafqatsizlik bilan muomalada bo'lsalar;

-muttasil ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsalar.

Farzandlikka olinuvchining xulq-atvori farzandlikka oluvchilarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur etkazayotgan, ularning hayoti va sog'lig'iga xavf solayotgan bo'lsa, farzandlikka olinuvchi voyaga etganidan keyin farzandlikka olish bekor qilinishiga yo'l qo'yiladi.

Sud boshqa asoslarga ko'ra ham bolaning manfaatlaridan kelib chiqib, uning fikrini hisobga olgan holda, farzandlikka olishni bekor qilishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013 yil 11 dekabrda "Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 21-sonli qarori [2,25] ga asosan ota-onaning majburiyatlaridan farqli ravishda farzandlikka oluvchilarning bolaga nisbatan huquq va majburiyatlari farzandlikka oluvchilarda ota-onalik huquqi va majburiyatlari nasl-nasabi tufayli emas, balki farzandlikka olganliklari munosabati bilan vujudga kelishini inobatga olgan holda sudlar Oila kodeksining 169-moddasida nazarda tutilgan asoslar ularni ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun emas balki, farzandlikka olishni bekor qilishga asos bo'lishini inobatga olishlari lozim.



Mazkur holatlarda ota-onalik huquqidan mahrum etish haqida emas balki, farzandlikka olishni bekor qilish haqidagi masala echimini topadi. Biroq farzandlikka olishni bekor qilish asoslari ota-onalik huquqidan mahrum etish asoslari bilan bir xil bo'lganligi bois, farzandlikka oluvchi ota-onaning farzandlikka olinuvchilarga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum etish deyish ham mumkin. Sud tomonidan farzandlikka olishni bekor qilish haqidagi masala ko'rilayotganda albatta yuqorida ko'rsatilgan asoslar o'z isbotlanishi lozim [3,124].

Oila kodeksining 169-moddasiga muvofiq, sud boshqa asoslarga ko'ra ham bolaning manfaatlaridan kelib chiqib, uning fikrini hisobga olgan holda, farzandlikka olishni bekor qilishga haqlidir. Bunday holatda farzandlikka oluvchining aybli xulq-atvori mavjud bo'lmastligi ham mumkin. Masalan, farzandlikka oluvchiga bog'liq bo'lgan va bo'lmagan holatlarda bolaning tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun zarar bo'lgan munosabatning o'rnatilmasligini ko'rsatish mumkin. Mazkur holatlarga farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchining shaxsiy xususiyatlariga bog'liq holda o'zaro tushunmovchilikning mavjudligi, buning natijasida esa bola tomonidan farzandlikka oluvchining obro'ga ega bo'lmastligiga olib keladi yoki bola o'zini farzandlikka oluvchining oila a'zosi deb hisoblamaydi.

Farzandlikka olishni bekor qilishda farzandlikka oluvchi shaxsning huquqqa xilof harakatlari bilan bog'liq bo'lmagan biroq bolaning hayot sharoitlariga va tarbiyasiga nomuvofiq keladigan boshqa asoslar ham bo'lishi mumkin. Masalan, farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchining ruhiy nomuvofiqi ya'ni, o'zaro ota-onaning va bolaning mehr-muhabbat, hurmat, bog'liqlik kabi tuyg'u bo'lmastligi, bolaning tarbiyasi bilan bog'liq qiyinchiliklar, farzandlikka oluvchining yoki farzandlikka olinuvchining sog'lig'ining ahvoli va h.k. bo'lishi mumkin.

Bunday asoslar jumlasiga vafot etgan deb e'lon qilingan ota-onaning qaytib kelishi yoki ota-onaning muomala layoqatining tiklanishi va bolaning o'z tuqqan ota-onasiga bag'riga qaytish istagining mavjudligi hamda boshqa asoslarni ko'rsatish mumkin. Albatta, bunday hollarda sud tomonidan bola manfaatlarini ko'zlab oqilona qaror qabul qilinishi lozim.

Farzandlikka olishni bekor qilish bir yo'la huquqni bekor qilish va huquqni tiklovchi yuridik fakt hisoblanadi.

Farzandlikka olishni bekor qilish farzandlikka olishdagi butun huquqiy oqibatlarni kelajak vaqt uchun tugatadi. Agar bu bola manfaatiga mos kelsa, bir vaqtda uning huquqiy aloqalari ota-onalari va boshqa qon-qarindoshlari bilan ham tiklanadi.

Oila kodeksining 170-moddasiga binoan, farzandlikka olishni bekor qilishni talab etish huquqiga ega bo'lganlar doirasiga farzandlikka olinganning ota-onasi, prokuror, vasiylik va homiylik organlari, bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar, shuningdek, o'n olti yoshga to'lgan farzandlikka olingan bola kiradi.

Taniqli sivilist olim M.V.Antokolskayaning ta'kidlashicha, javobgar tariqasida vasiylik va homiylik organini tan olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ushbu organ sud bosqichida bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida ishtirok etadi va da'vogarning talabiga qarshi bolaning manfaatlaridan kelib chiqib o'z e'tirozini bildiradi [4,328].

Sud tomonidan farzandlikka olish bekor qilinishi yuzasidan ish ko'rilayotganda barcha holatlar va istalgan asoslar mavjud bo'lganda agarda, farzandlikka olishni bekor qilish bolaning manfaatlariga zid bo'lsa da'voni qanoatlantirishni rad etishi huquqi mavjud bo'ladi.

Farzandlikka olishni bekor qilish bo'yicha da'vo muddati belgilanmagan. Umumiy qoida bo'yicha farzandlikka olishni bekor qilish bola to'la muomala layoqatiga ega bo'lishiga qadar sodir bo'ladi [5, 286]. Bu esa bolaning muomala layoqatiga ega bo'lishi (to'lishi) ota-onalarning huquq va majburiyatlari tugallanishi bilan bog'liq bo'lib, bunday vaziyatda farzandlikka olishni bekor qilish uchun zarurat ham qolmaydi. Ba'zida esa, shunday vaziyatlar ham bo'ladiki, farzandlikka olishni bekor qilish voyaga etgan shaxsning manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo'ladi [6,45]. Masalan, farzandlikka olingan shaxs bir vaqtlar betoblighi sababli bolani tarbiyalab voyaga etkaza olmagan o'zining qon-qarindoshlari bilan aloqani tiklashni xohlaydi. Demak, ba'zi istisno holatlarda voyaga etgan shaxsga nisbatan farzandlikka olishni bekor qilishga yo'l qo'yilishi mumkin.

Farzandlikka olishni bekor qilish farzandlikka olinganni, farzandlikka oluvchilarning va farzandlikka olinganlar ota-onalarining roziligi mavjud bo'lganida yo'l qo'yilishi mumkin. Chunki, farzandlikka olishni bekor qilinishi natijasida ulardan birlari meros huquqini, mehnatga layoqatsiz bo'lganda moddiy ta'minot olish huquqini yo'qotadi, boshqalari esa bunday huquqni qo'lga kiritadi.



## SIYOSAT

Agar farzandlikka olinuvchining ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum etilgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsalar, ularning roziligi olinmasdan farzandlikka olish bekor qilinadi.

Agar farzandlikka olish farzandlikka olinuvchilar ota-onalarining rozilgisiz yoki majburlash yo'li bilan amalga oshirilgan bo'lsa, bolalarning ota-onalari farzandlikka olishni bekor qilishni talab etishlari mumkin.

Odatda, ko'pincha farzandlikka notinch bo'lgan oilalardan bolalar beriladi. Ko'pincha farzandlikka olish bekor qilinganda bola vaqtincha vasiylik va homiylik organlariga topshiriladi.

Oila kodeksining 171-moddasiga 2-qismiga muvofiq, sudning farzandlikka olishni bekor qilish to'g'risidagi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab sud uch kun ichida ushbu hal qiluv qaroridan ko'chirmani farzandlikka olinayotgan bolaning tug'ilganligi ro'yxatga olingan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuborishi shart.

Farzandlikka olish sud tomonidan farzandlikka olishni bekor qilish haqida qarori qonuniy kuchga kirganidan so'ng tamom bo'ladi. Farzandlikka olish sud tomonidan bekor qilinganda, farzandlikka olish bo'yicha munosabatlarni kelajak vaqt uchun tamom bo'lganligini anglatadi.

**XULOSA**

Farzandlikka olishni bekor qilish deganda, farzandlikka olish natijasida yuzaga kelgan munosabatlarni sud tartibida bekor qilinishini anglatuvchi yuridik fakt tushuniladi. Farzandlikka olishni bekor qilinishi natijasida farzandlikka oluvchi (uning qarindoshlari) va farzandlikka olingan bola o'rtasidagi barcha huquqiy munosabatlar tugatiladi. Shu bilan birga, bola va uning o'z (biologik) ota-onasi (uning qarindoshlari) o'rtasidagi o'zaro huquq va majburiyatlar agarda bolaning manfaatlariga zid kelmasa qayta tiklanadi. Demak, farzandlikka olishni bekor qilinishi huquqni tugatuvchi va huquqni qayta tiklovchi yuridik fakt bo'lib hisoblanadi.

Oila qonunchiligida farzandlikka oluvchining aybini isbotlashni tartibga solish masalasini hal etish tartibini belgilovchi norma mavjud emas. Bunday holatda farzandlikka oluvchiga nisbatan jinoyat prosessining mashhur "aybsizlik prezumpsiyasi" qo'llaniladimi yoki farzandlikka oluvchining aybdorligi prezumpsiyasi qo'llaniladimi? – degan savol tug'iladi. Albatta, har qanday huquqbuzarlik o'ziga xoslikka ega. Masalan, jinoyat huquqbuzarligida ob'ekt, ob'ektiv tomon, sub'ekt va sub'ektiv tomon zaruriy tarkib bo'lib hisoblansa, fuqarolik-huquqiy javobgarlik bundan jiddiy farq qiladi. Ayrim olimlar (O.Oqyulov) yuridik javobgarlikning an'anaviy konstruksiyasining zaruriy komponentlari-huquqqa xiloflik va ayb ba'zi holatlarda fuqarolik-huquqiy javobgarlik belgilashda mavjud bo'lmasligiga yo'l qo'yiladi va yuridik javobgarlik haqidagi doktrinalar qayta ko'rib chiqilishi lozimligi ta'kidlashadi. Mazkur holatda, oilaviy-huquqiy javobgarlikning o'ziga xosligini e'tiborga olgan holda farzandlikka oluvchining o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmasligida farzandlikka oluvchining aybdorligi prezumpsiyasi amalda bo'lishi lozim. Chunki, oiladagi ma'naviy muhit, bolaning tarbiyasi, xulq-atvori va boshqa insoniy fazilatlarining shakllanishida farzandlikka oluvchi mas'uliyatli hisoblanadi.

Farzandlikka oluvchi o'z majburiyatlarini bajarishda vijdotsizlik qilsa, unga nisbatan turli huquq sohalarida (ma'muriy, jinoiy, fuqarolik) nazarda tutilgan javobgarlik choralari belgilanishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu javobgarlikdan farq qiluvchi oilaviy –huquqiy javobgarlik chorasi ham nazarda tutilishi mumkin.

Albatta, oilaviy-huquqiy javobgarlik chorasini belgilashda ota-onaning bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi holati aniqlanishi lozim. Buni aniqlash har bir ota-onaning o'ziga xos xususiyatlarini, bolaning shaxs sifatida shakllanishining psixologik o'ziga xosligini, ota-onasining xulq-atvorini o'ziga qay darajada qabul qilishi kabi holatlarga e'tibor qaratilishi mumkin.

Ota-onalik huquqidan mahrum etishdan farqli ravishda farzandlikka oluvchining aybi bo'lmagan holatlarda ham farzandlikka olishni bekor qilish mumkin. Bu erda birinchi navbatda psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. Demak, psixologik ekspertiza o'tkazish maqsadga muvofiq va zaruriyat bo'lib hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. J.Dadaboyeva. Farzandlikka olingan bolalarning huquqiy holati. – FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФФПГУ, 2022/Maxsus son, 688-692
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining "Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 2013 yil 11 dekabrda 21-sonli Plenum qarori
3. Dadaboyeva J.A. Farzandlikka olishni huquqiy tartibga solish muammolari. yurid.fan.nomz.diss. –T.: TDYUI, 2011. –161 bet.

4. Антокольская М.В. Семейное право.-М.: Юрист, 1996. -С 328.
5. F.M.Отахўжаев, SH. R.Yuldasheva. Oila huquqi. Darslik.-T. 2007. 331 bet
6. J.Dadaboieva. Oilaviy huquqiy tartibga solishning ayrim masalalari. – FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ, 2020/№6,42-46.
7. Dadaboieva, J. (2023). STATE PROTECTION OF FAMILY, FATHERHOOD, MOTHERHOOD, CHILDHOOD. Science and Innovation, 29-33.
8. Dadaboieva, J. (2024). THE IMPORTANCE OF FAMILY STRENGTH IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 99-105.